



**AVTOMOBIL YO'LLARIDAGI QOIDA BUZARLIKLER HAMDA
HAYDOVCHILARNI TAYYORLASH O'QUV KURSIDAN FOYDALANISH
BO'YICHA KO'RSATMALAR**

Nazarov Anvar Aripovich

anazarov_07@mail.ru

(Prof. Ph.D., TDTrU)

Suyarov Nurali Jovli o'g'li

nuralisuyarov19@gmail.com

Toshkent Davlat Transport Universiteti

Annotatsiya: Maqolada haydovchilarni tayyorlash jarayonini tubdan o'rGANISH hamda ulardan foydalanish bo'yicha yuzaga kelgan muamolarning haydovchilarni tayyorlash jarayoniga tasiri hamda yo'l-transport tizimining samaradorligi va xavfsizligini hisobga olgan holda haydovchilarni tayyorlash jarayonidagi mavjud kamchiliklarni salbiy ta'sirini kamaytirish masalasi ko'rib chiqildi. Yo'l-transport tizimlarini tashkil etishda va transport harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda chorrahalarini, o'tkazuvchanligini oshirishga salbiy ta'sirni kamaytirishning mavjud muammolari va usullari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Avtomobil yo'llari, svetofor, yo'llarni o'tkazuvchanligi, haydovchilarni tayyorlash, transport oqimlari, transport infratuzilmasi, rekonstruksiya qilish, o'quv jarayonlar, yo'l transporti, harakat xavfsizligi, to'xtash, to'xtab turish, qoidalar.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi yo'llarida yo'l transport hodisasi eng jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biridir. Mavjud sharoitlar tufayli yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning barcha darajadagi turli hokimiyat organlarining ishini yanada muvofiqlashtirishni, qo'shimcha tashkiliy va profilaktika choralarini ishlab chiqishni talab qiladi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2022 yil 4-apreldagi PQ-190-son, “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[1] qarorida yo‘l harakatini tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan, qarorning maqsadi va vazifasi quyidagilardan iborat. 2022 — 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida avtomobil yo‘llarida inson hayoti va sog‘lig‘ini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev raisligida 2022 yilning 11 fevrali kuni bo‘lib o‘tgan “Yo‘llarda insonlarni xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlari” yuzasidan videoselektr yig‘ilishida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasidagi mavjud muammolar va ularning yechimlari to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar keltirildi.

Yig‘ilishda sohadagi ayanchli holat statistika ma’lumotlari asosida tahlil qilindi.

Tahlillar ko‘rsatishicha, yo‘l transport hodisalari:

- ❖ 45 foizi avtomobil haydovchilarning qoidalarni mensimasligi sabab;
- ❖ 10 foizi avtomobil haydovchilarning tajribasizligi sabab;
- ❖ 25 foizi yo‘l holati va infratuzilmasi talabga javob bermasligi sabab;
- ❖ 20 foizi piyodalarning qoidalarni bilmasligi va amal qilmasligi oqibatida sodir bo‘lmoqda.


Misol uchun, 2021 yilda aniqlangan 7,7 million huquqbazarlikdan 46 % qo‘pol qoidabuzarliklar hisoblanadi. Ayniqsa:

- mast holda avtomobilni boshqarish Samarqand (12 mingta), Toshkent viloyati (8,5 ming), Farg‘ona (7,5 ming) va Toshkent shahrida (7 ming);
- sevetaforning qizil chirog‘ida o‘tish Toshkent viloyati (62 ming), Samarqand (51 ming) va Toshkent shahrida (47 ming) ancha yuqori.

2021 yilda respublika bo‘yicha 95 ming nafar haydovchi 5 tadan ko‘p, 9 ming nafari 20 tagacha, 700 nafari 50 tagacha, 18 nafari 100 tagacha qoidabuzarlik haydovchilar tomonidan sodir etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyev yig‘ilishda ta’kidlaganidek, “Yildan yilga avtotransport vositalari va haydovchilar soni ko‘paygani bilan ularning madaniyati, o‘zaro hurmat va bilim-tajribasi pasayib borayotgani ham ko‘rishimiz mumkin”.


Masalan, yo‘l transport hodisalarini 75 foizini 35 yoshgacha bo‘lganlar sodir etilgan. Har yili 500 ming kishi haydovchilik guvohnomasi oladi, lekin 25 foizi mashg‘ulotlarga qatnashmaydi. 2021-Yildagi haydovchilar tomonidan sodir etilgan qo‘pol qoida buzarliklarning umumiyligi ko‘rinishi 1-rasm da ko‘rsatilgan.



1-rasm. Qo‘pol qoida buzarliklar 2021 yil

Yo‘l-transport hodisalarining ko‘payib borayotganligi, haydovchi va piyodalarining bilimi, qoidalarga itoatkorligi va yo‘l harakati ishtirokchilariga nisabatan hurmati pastligi bunga asosiy sabab bo‘ladi. Yuqoridagi baxtsiz hodisalarining asosiy sabablaridan biri bu haydovchilarni tayyorlash jarayonidir, haydovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash jarayoniga sungi yillarda tubdan o‘zgarish kiritildi. Haydovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda ularni imtihondan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish va ta’lim sifatini qat’iy nazorat qilishning quyidagilarni nazarda tutuvchi yangi tizimi joriy etiladi, unga muvofiq:

- ❖ Audutoriya ya'ni nazariy darslarni o'tashga faqat avtovtransport sohasi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan hamda O'z Res IIV Akademiyasi qayta tayyorlash diplomi bo'lgan shaxslar qabul qilinadi;
- ❖ YTH da birinchi tibbiy yordam fanidan oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga yoki "Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish" bo'yicha instruktor (paramedik) malaka sertifikatiga ega bo'lgan shaxslar qabul qilinadi;
- ❖ Haydovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda amaliy mashg'ulotlar instruktori oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga hamda sertifikatiga ega bo'lgan hamda O'z Res IIV Akademiyasi qayta tayyorlash diplomi bo'lgan shaxslar qabul qilinadi;



2-rasm. Amaliy imtihon topshirish, avtodrom sxamasi

Haydovchiga qo'yiladigan umumiyligi talablar. Haydovchining vazifalarini belgilaydigan asosiy me'yoriy hujjatlar: amaldagi yo'l harakati qoidalarini bilish, va undagi ko'rsatmalariga amal qilish, yo'lovchilar va yuklarni tashishda ehtiyyotkorona bo'lish, o'ziga xos sharoitlarni hisobga olgan holda boshqarish, yo'l-transport hodisalarini sodir etmaslik. Tabiatni muhofaza qilish qoidalarini buzgan shaxslarga javobgarlik.

Hozirgi vaqtida mamlakatda va bizning mintaqamizda avtovtransportlarning ko'payishini hisobga olgan holda, xususan, kelajakdagi haydovchilarni psixologik diagnostika qilish haydovchilarni tayyorlash tizimida professional tanlov uchun zarur

shart bo‘lib, o‘quv jarayonini loyihalash va tashkil etishning barcha bosqichlarini hisobga olishga imkon beradi.

Haydovchilarini tayyorlash jarayoni “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida” qonun talablarini va “ma’lum bir toifadagi transport vositasi haydovchisi” kasbi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi standartini hisobga olgan holda namunaviy o‘quv dasturlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Butun o‘quv jarayonini shartli ravishda ikkita tarkibiy qismga bo‘lish mumkin: nazariy va amaliy o‘rganish: “Yo‘l harakati sohasidagi qonunchilik asoslari”, “Haydovchi faoliyatining psixofiziologik asoslari”, “Haydovchi madaniyati”, “Yo‘l transport hodisasida birinchi yordam”, “Yengil avtomobilarning tuzilishi va ularga texnik xizmat ko‘rsatish”, “Avtotransport vositalarini xavfsiz boshqarish va harakat xavfsizligi asoslari”, “Haydovchining huquqiy javobgarligi”, “Yo‘l harakati qoidalari”.

Amaliy qismda avtomobilda va maxsus jihozlangan o‘quv avtomobilida boshqarish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Amaliy mashg‘ulotlar uchun avtodrom jihozlangan, o‘quv jarayoni uchun o‘quv yo‘nalishlari ishlab chiqilgan va yo‘l harakati ichki ishlar xodimi bilan kelishilgan holda bo‘ladi.

Avtomaktablarda nazariy o‘qituvchilar transport sohasida oliy va undan yuqori toifada bo‘lishi kerak, o‘qituvchilar va instruktorlar transport vositalari haydovchilarini tayyorlash bo‘yicha faoliyatining pedagogik asoslari kurs dasturlari bo‘yicha o‘qitilishi kerak.

O‘quv jarayonini loyihalashda transport vositalarining haydovchilariga qo‘yiladigan talablar pedagogik texnologiyalarni modellashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Avtomobil haydovchisi bilishi kerak:

- yo‘l harakati qoidalari, transport vositalarini boshqarish va yo‘l harakati xavfsizligi asoslarini juda yaxshi bilish;

- turli xil ob-havo sharoitlarining (yomg‘ir, tuman, muz va boshqalar) transport xavfsizligiga ta’siri va transportdan oldin sodir bo‘lgan yo‘l transport hodisalarning oldini olish usullari;
- yo‘l harakati qoidalarini buzish va mexanik transport vositalaridan foydalanish, atrof-muhitning ifloslanishi uchun javobgarlik borligini bilish va ifloslamaslik;
- avtomobilning asosiy mexanizmlari va qurilmalarining maqsadi, joylashuvi, qurilmasi, ishlash printsiplarini bilish va tushinish;
- yo‘lda yuzaga keladigan avtomobil mexanizmlari va qurilmalaridagi nosozliklar bartaraf etish usullarini bilish va bartaraf etish;
- avtomobilning texnik holatini tekshirishda va foydalanish materiallari (benzin, elektrolitlar, sovutish va tormoz suyuqliklari) bilan ishlashda xavfsizlik qoidalarini bilish va amal qilish;
- yo‘l-transport hodisalarida jabrlanganlarga tibbiy yordam ko‘rsatishda usullar va harakatlar ketma-ketligini bilish va amal qilish;
- yo‘lga chiqishdan oldin avtomobilning texnik holatini tekshirib soz holatdaligiga ishonch hosil qilish;

Avtomobil haydovchisi quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak:

- har xil turdagи yo‘llarda transport vositasini boshqarish usullari;
- avtomobil yo‘llari xaritasini bilish afzal;
- ko‘cha-yo‘l tarmog‘ida harakatlanish qoidalarini bilish;
- yo‘l harakati xavfsizligi va eng qisqa muddatlarni hisobga olgan holda harakat yo‘nalishlarini aniqlash va harakatlanish;
- avtomobilning har qanday nosozligining aniqlash va uning harakat xavfsizligiga ta’sirini aniqlab harakni belgilash;
- avtomobilning odatiy nosozliklarini tuzatish, imkonи bo‘lmasa tamirlash joyiga olib boorish;

O‘qitish usullari sinchkovlik bilan tanlash, ularni haydovchilikka nomzodlarning sifat tarkibini yosh chegaralarini, shaxsiy va psixofiziologik xususiyatlarini,

shuningdek, yangi maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish qobiliyatini hisobga olgan holda belgilanishi kerak.

Hozirgi vaqtida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.07.2022 yildagi 393-son avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda ularni imtihondan o‘tkazish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘quv tashkilotlarida “A”, “B”, “C” toifalaridagi avtomototransport vositalarini va shahar elektr transporti vositalarini boshqarish uchun shaxslarni tayyorlash, “C”, “D”, “BE”, “CE”, “DE” toifalardagi avtotransport vositalarini boshqarish huquqini berish uchun shaxslarni qayta tayyorlash belgilangan tartibda ishlab chiqilgan va tasdiqlagan o‘quv rejasiga va fanlarning o‘quv dasturlariga muvofiq olib boriladi.

Xulosa va takliflar.

Haydovchilarini tayyorlash jarayonida ta’lim sifatini oshirish bu juda muhimdir shuningdek haydovchilar qoialarda belgilangan tartibda amal qilishi maqsadga muvofiqdir. Harakat xavfsizligini ta’minalash, atrof-muhitga tabiiy tizimlar parametrlarining o‘zgarishiga bevosita ta’sir qiladi. Yo’llardagi xavfsizlikni ta’minalash, xavfsizlik nuqtai nazaridan eng muhim tarkibiy transport vositalari tomonidan atrof-muxit ifloslanishi, hududlarda kuzatilayotgan asosiy muammolardan biri bo‘lmoqda. Haydovchilarini sifatli tayyorlash avtomobil yo‘llarida xavfsizlikni oshirishga qaratilgan. Avtomobil yo‘llarida xavfsiz harakatlanish yo‘llarda mavjud muammolarni hal qilish usullarini ishlab chiqish avtomobil yo‘lining muhandislik inshootlari hamda haydovchilarini tayyorlash tizimidagi muammolarni kamaytiradi.

- 1.Haydovchilarini tayyorlash tizimidagi mavjud holatini ko‘rib chiqqish.
- 2.Haydovchilarini tayorlash tizimidagi kamchiliklarni yo‘llarda baxtsiz hodisalarga ta’siri.
- 3.Haydovchilarini tayyorlash jarayonini zamonaviy o‘qitish usullarini rejalashtirish hamda takomillashtirish.

4. Haydovchilarni tayyorlash tizimini yangi texnologiyalar bilan rivojlantirish.

Foydalaniqlga adabiyotlar.

1. Highway Capacity Manual. // TRB, Washington, DC, 2000. – 1134 p.
2. Капитанов В.Т. Шауро С.В. Методика расчета светофорного цикла. – М.: Изд-во ВНИИ БД МВД СССР, 1979. 49 с.
3. Клинковштейн Г.И. Организация дорожного движения. – М.: Транспорт, 1975. – 150 с.
4. Клинковштейн Г.И., Коноплянко В.И. Организация дорожного движения / МАДИ. – М., 1977. – 59 с.
5. Коноплянко В.И. Организация и безопасность дорожного движения / МАДИ. – М., 1983. – 240 с.
6. Кременец Ю.А. Технические средства регулирования дорожного движения. – М.: Транспорт, 1981. – 252 с.
7. Кременец Ю.А., Печерский М.П., Афанасьев М.Б. Технические средства организации дорожного движения. – М.: Академкнига, 2005. – 279 с.
8. Лобанов Е.М. и др. Проектирование и изыскание пересечений автомобильных дорог. – М.: Транспорт, 1972. – 232 с. 9. Лобанов Е.М., Сильянов В.В., Ситников Ю.М. Пропускная способность автомобильных дорог. – М.: Транспорт, 1970. – 150 с.
9. Aliyev A.A. Txay-yangi qo‘yliq ko‘chalari kesishmasida piyodalar oqimini tartibga solish 09.10.2024